

TA'LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV, PIRLS BAHOLASH DASTURI

Do'siyorova Shaxnoza Zokirovna

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 4-umumta'lim maktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi hamda amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'limning mamlakat taraqqiyotidagi o'rni, ta'lim sifatini oshirish va uni baholashga innovatsion yondashuvlarning ahamiyati qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim sifati, pedagogika, innovatsiyalar, davlat ta'lim standartlari, texnologiyalar.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi. Jamiyatini modernizatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari nuqtai nazaridan o'quvchilarning ta'lim sifatini boshqarish muammosida ta'lim sifatini oshirish muhim bo'lib, yildan-yilga uning dolzarbligi ortib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim sifati muammosi murakkab va keng qamrovli masala.

Ushbu muammoni ochib berish uchun tadqiqotning asosiy tushunchalari – “ta'lim” va “sifat”ga murojaat qilish kerak.

“Ta'lim” tushunchasi juda keng talqin qilinadi. Shuningdek, ta'lim uni tashkil etishning turli – shaxsiy, institutsional, mintaqaviy, davlat darajalarida ham ko'rib chiqiladi. E. Gusinskiy o'z konsepsiyasida ta'lim tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Ta'lim – bu shaxsni madaniyatga o'rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo'naltirilganlikni egallashi jarayonidir”. Uning boshqa ta'rifi quyidagicha: “Ta'lim – bu dunyo haqidagi tushunchalar, g'oyalar tizimini yaratish, shakllantirish va rivojlantirish jarayoni va natijasi bo'lib, u maqsadga intilish imkoni beradi”.

Pedagogik lug'atda “ta'lim” tushunchasining talqini “tizimlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi; insonni hayotga tayyorlashning zaruriy sharti” deb bayon etilgan.

A.O.Tatur ta'limni asosiy tizimlar shaklida ifodalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqadi:

- ta'lim mazmunini shakllantirish tizimi (nimani o'qitamiz?);
- o'quv faoliyatini tashkil etish tizimi (qanday o'qitamiz?);
- ta'lim sifatini baholash tizimi (natijada nimaga erishamiz?)

Ma'lumki, o'quvchilarning bilim olish tezligi individualdir. Ba'zi o'quvchilar bilimlarni tez, boshqalari sekin o'zlashtiradilar, lekin ularning yutuqlari bir xil ko'rsatkichlar (bilim hajmi, ijodiy faollik, mustaqillik) bilan tavsiflanishi mumkin.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasi ta'lim sifatining oshishiga olib keldi. Ushbu yondashuvning mazmuni o'quvchilarning ma'lum mezonlarga ko'ra guruhlariga bo'lingan muammolarni yangi usulda hal qilish qobiliyatidan iborat:

- tanlagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish bilan bog'liq muammolar;
- zarur ma'lumotlarni qidirish, tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatiga qarab qaror qabul qilish uchun axborot bazasi bilan bog'liq muammolar;
- normalar va qoidalarining, ba'zan vaziyat xarakteridagi harakatlarini hisobga olgan holda qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishning huquqiy asoslari bilan bog'liq muammolar;
- maqsadlarni amalga oshirish va o'z faoliyatini o'zo'zini tashkil etish yoki boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar asosida qabul qilingan qarorni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar;
- faoliyat natijalarini baholash bilan bog'liq muammolar va birinchi navbatda, baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha shakllangan ko'nikmalar asosida shaxsning ularni mustaqil ravishda baholash qobiliyati.

Shu bilan birga, ko'rsatilgan parametrlarning doimiy o'zgaruvchanligi tufayli ular bo'yicha ta'lim sifatini baholashning murakkab bo'lishi aniq. Bu borada

G.N.Serikov shunday fikr bildiradi: shaxsning rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim o'z maqsadiga u shaxs, uning o'zini o'zi rivojlantirish kuchlari talab qilinadigan vaziyatni yaratadigan darajada erishadi. Shuning uchun inson, birinchi navbatda, boshqalar orasida, boshqalar uchun va bu bilan o'zi uchun shaxsiylashtirilgan, o'zligini biladigan shaxs sifa tida ko'rib chiqilishi kerak.

Hozirgi vaqtda asosiy shaxsiy funksiyalarning uchta bloki mavjud:

- 1) mas'uliyat (axloqiy tanlov funksiyasi, hayotiy faoliyatni motivatsion asoslash va boshqalar);
- 2) o'z-o'zini anglash (ijodkorlik, erkinlik, mustaqillik, turli xil hayotiy to'siqlarni yenga olish, hayotning ma'naviy darajasini individual ta'minlashni rivojlantirish);
- 3) reflekslash (ma'no-qidiruv faoliyatini, "Men" obrazini rivojlantirishni, maqsadni shakllantirish avtonomiyasini ta'minlaydigan funksiya).



2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021 yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi.

Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi.

Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni “badiiy tajriba orttirish”, “axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi. PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qaratadi. O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi. Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar

to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilar so'rovnomasi o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi. Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi.

Tadqiqotning 2016 yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Afsuski, o'quvchilarning shaxsiy o'sish ko'rsatkichlari hali aniq qilib belgilanmagan va shuning uchun ta'lim sifatini baholash uchun ta'limning yuqori darajasi, ta'limni differentsiallashtirishning rivojlangan tizimi, ta'lim xizmatlarining mavjudligi, bolalarning ehtiyojlarini qondiradigan hayot faoliyati sohasining kengligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi. Ehtimol, faqat birinchi ko'rsatkich o'quvchilarning ta'lim sifatini tavsiflashi mumkin, qolgan ko'rsatkichlarni aslida ushbu natijaga erishishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar qatoriga kiritish mumkin.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ko'lamini ularning ijtimoiy ehtiyojlarga qarab amalga oshirilishi va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining strategik yo'nalishlari hisoblanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ta'lim islohotining bunday tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida o'z aksini topgan.

Ta'lim standartlarini amalga oshirish davlat ta'lim makonining birligini ta'minlaydi va o'quvchilarning to'laqonli ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Ta'lim standartlari bajarilishini nazorat qilish vositasi sifatida monitoringdan foydalanish har doim maqsadga muvofiq.

Bularning barchasi nafaqat mazmunni yangilash, balki yangi ta'lim natijasiga, o'quvchilarda ta'limning yangi sifatiga, xususan, kompetensiyalarni shakllantirishga, bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo'llash qobiliyatiga e'tibor qaratishni ham

nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ta'lim sifatini boshqarishning yangi modellarini yaratishni taqozo etadi. Bu yerda gap ijobiy natijaga erishishga yordam beradigan dasturiy maqsadli, axborot-texnologik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar nuqtai nazaridan ta'lim muassasasida tashkil etilgan ta'lim jarayonining natijasi va sifati o'rtasida bog'liqlik mavjudligi haqida boryapti. Yuqorida bayon etilganlarning barchasi bashorat qilingan natijaga erishishni ta'minlaydigan boshqaruvning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifati zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan ta'limning muhim xususiyatlari majmuini o'z ichiga oladigan ko'p qirrali tushunchadir. Ta'lim sifatini oshirish uchun esa amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p va ular qatorida eng muhimlari bizning fikrimicha quyidagilar: yuqori malakali o'qituvchilarni ta'lim tizimiga imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilish, kasb maqomini va mehnat sharoitlarini o'zgartirish orqali o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni o'qish davridayoq ixtisoslashtirilgan o'quv kurslari va o'qituvchilik amaliyoti orqali amaliy faoliyatga tayyorlash, o'qituvchilarga har xil tabiatga ega o'quvchilarning ehtiyojlari va turli materiallardan kelib chiqib turli yondashuvlardan foydalangan holda samarali va mos pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkonini berish.

Umuman olganda bu ro'yxatni juda uzoq davom ettirish mumkin, ammo ishni eng avvalo shulardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr O'RQ-637-son
2. Абдуллаева, Ш. А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
3. Abdullayeva G.A. QUALITY OF EDUCATIONAL WORK IN THE GENERAL
4. SECONDARY EDUCATION SYSTEM AS A PROBLEM // Экономика и социум.
5. 2021. №11-1 (90). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/quality-of-educational-work-in-the-general-secondary-education-system-as-a-problem> (дата обращения: 10.05.2023).
6. G.M.Anorqulova "Ta'lim texnologiyalari"-Toshkent:"Innovatsiya– Ziyoy" 2021-yil 3-bet
7. Erkaboeva, N. S., & Bakhromovna, M. M. (2022). A MODERN APPROACH TO
8. THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE DEFECTOLOGISTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1723-1725.

9. В.Х.ХОДЖАЕВ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
10. Г.Н.Сериков Управление образованием: системная интеграция – Челябинск : Изд-во Челяб. пед. ин-та, 2008. – 660 с.
11. Э.Н.Гусинский Введение в философию образования : учеб. пособие / Э.Н.Гусинский, Ю.И.Турчанинова. – М. : Логос, 2000. – 223 с.
12. А.О.Татур Стандарты и тесты в образовании – М. : Педагогическое общество России, 2005. – 48 с.